

QISHLOQ XO`JALIGI YERLARINI LOYIHALASHNING SAMARADORLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831234>

**Ergasheva Xonoyim Abduqaxxorovna**

*Toshkent davlat agrar universiteti*

*O`simliklar karantini va himoyasi kafedrasida assistenti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Hozirgi kunda qishloq xo`jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln gektar sug`oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilayotganligi, Iqtisodiy islohatlarning butun zanjirida agrar sohadagi o`zgarishlarga g`oyat katta ahamiyat berilayotganligi haqida so`z boradi.*

**Kalit so`zlar:** *qishloq xo`jaligi, iqtisodiy tarmoqlar, o`zgarishlar, oziq-ovqat, xomashyo, islohotlar, takomillashtirish.*

Qishloq xo`jaligi —Aprel inqilobidan keyin o`tkazilgan tadbirlardan biri bu yersizlarni va kam yerlik dehqonlarni pomeschchiklar va yer egalardan qarzini bekor qilish haqida dekret qabul qildi. Hukumat dasturining yer islohatida mehnatkash dehqonlarni ishtirok etishini hisobga olib hayotga tadbiriq qildi. Qishloq xo`jaligi kooperativlarini tashkil qilishda yersiz va kam yerlik dehqonlar, ko`chmanchi kambag`allarni jalb qilish ko`zda tutilgan.

Dehqonchilik. Afg`oniston dehqonchiligi sun`iy sug`orishga asoslangan. Juda quruq iqlim, atmosfera yog`inlarining kam miqdori va ularning yil mavsumlarida notekis taqsimlanishi ekinlarni nafaqat tekisliklarda, balki tog`li rayonlarda ham sug`orish zaruriyatini taqazo qiladi. Hattoki shunday viloyatlar mamalakatning boshqa qismlariga nisbatan atmosfera yog`inlari bilan yaxshi ta`minlangan Badaxshon, Nuriston va Hazarajotda qishloq xo`jaligi mahsulotlarining 3/4 qismidan ko`proq yalpi hosilini sug`orma yerlar beradi. Afg`oniston iqlim sharoitidagi sug`oriladigan yerlar sezilarli darajada yuqori va bir maromda hosil berishi bilan harakterlanadi.

Mamlakatimiz agrar tarmog`ida iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi natijasida vujudga kelgan ko`p ukladli iqtisodiyot, eng avvalo, xususiy mulkka asoslanuvchi fermer va dehqon xo`jaliklarining rivojlanishi hamda iqtisodiy barqaror xo`jalik yuritish subyektlariga aylanishiga bog`liq holda rivojlanmoqda. Chunki, bozor iqtisodiyotining asosini ko`p ukladli iqtisodiyot tashkil etsa, ko`p ukladlilik, o`z navbatida, xususiy mulk ustuvorligiga tayanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish davrida qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirishning aharniyati ortib bormoqda. Ishlab chiqaruvchilarning maqsadi — moddiy resurslar, mehnat hamda mablag`ni oqilona, tejimli sarflab, xaridorgir,

raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga o'z vaqtida, sifatli holda yetkazib berish natijasida ko'proq foyda olishdir. Bu maqsadlarga erishishda «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanini chuqur o'rganish zarur. Chunki qishloq xo'jaligi mutaxassislarining iqtisodiy va boshqaruv masalalariga tayyorgarlik darajasiga talab to'xtovsiz ortmoqda

Qishloq xo'jaligida mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi band bo'lishi bilan bir qatorda va YAIMning 70% dan ko'prog'ini berishiga qaramay, qishloq xo'jaligi hozirgacha kam mahsuldor, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondira olmayapti.

Chorvachilik hissasiga qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining yarmi va mamlakat eksportining 50% atrofida to'g'ri keladi. Yaylov qoramolchiligi ko'pchilik ko'chmanchilarning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Mollar uchun mavsumiy yaylovlarni qidirib ko'chmanchilar yozda Hindiqushning alp o'tloqlariga va boshqa baland tog' tizmalariga 500 dan 1500 metr masofagacha ko'tarilishadi, qishda esa Hind va Panjob (Pokiston) qirg'oqlarigacha bo'lgan tekisliklarning quyi vodiylariga tushishadi.

Chorvachilik. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilar qoramollari boshini hisoblash juda qiyin. Odatda mollar miqdori mavsumdan mavsumgacha va iqlim sharoitlariga juda bog'liq holda o'zgaradi. Sovuq qishlarda oziqa yetishmasligidan  $\frac{1}{3}$  qism mollar nobud bo'ladi va mollar boshi tiklanguncha bir necha yillar kerak bo'ladi. Shuningdek mollar miqdoriga kasallik ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'troq qishloq aholisi uchun asosiy mashg'ulot dehqonchilik bo'lib, chorvachilik faqat uni to'ldiradi.

Iqtisodiy islohatlarning butun zanjirida agrar sohadagi o'zgarishlarga g'oyat katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa aholining aksariyati qishloqda yashashi, iqtisodiyotning agrar-sanoat tarzida ekanligi hamda xayotiy muhim muammolarni hal qilishda qishloq xo'jaligining tutgan o'rni bilan bog'liq. Hozir iqtisodiyotning Ayni agrar sohasi katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlardan foydalanib, aholini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyo bilan taminlashni yaxshilabgina qolmay, Respublika qishloq aholisining turmushini farovon qilish ham mumkin. Qishloq xo'jaligida o'zgarishlar demokratik usullar bilan, avvalo, dehqonchilik sohasidagi mavjud ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni tubdan uzgartirish hisobiga amalga oshiriladi. Mehnatni tashkil etishning dehqon uchun tushunarli va foydali bo'lgan shakllarini tiklash zarur. Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o'z samarasini bermoqda. Masalan, 2017 yil yakunida 96 ming gektar hosildorligi past maydonlarda paxta va g'alla o'rniga 32 ming gektar yerda karam, turli sabzavot va ko'katlar ekildi va bu maydonlardan olingan minglab tonna mahsulotlar eksport qilindi. Shuningdek, 11 ming gektarda intensiv bog' va yangi tokzorlar, 1 ming 500 gektarda issiqxonalar barpo etildi. Qishloq xo'jaligi sohasida erishayotgan yutuq va natijalarimiz haqida yana ko'p gapirishimiz

mumkin. Lekin yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish, xotirjamlikka berilish bizga yarashmaydi. Chunki qishloq xo'jaligi sohasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar ham juda ko'pligini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonni 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim vazifalarni aniq belgilab, ularni izchil amalga oshirib borayotganimiz sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligini joylashtirish mehnatning ijtimoiy bo'linishi, geografik (hududiy) bo'linishining bir shakli bo'lib, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlaridan yuzaga keladi. Umumiy ko'rinishda u o'zida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini hududlar bo'yicha ma'lum tamoyillar asosida va qator omillar ta'sirida shakllangan tabiiy, ijtimoiy, demografik, siyosiy sharoitlarga ko'ra taqsimlanishini ko'rsatadi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko'tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu munosabat bilan chorvachilik, g'allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va amalda qo'llash, bizning iqlim sharoitimizda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug'orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tuproq va iqlim sharoiti bilan uzviy bog'likligi undagi mehnat taqsimotini geografik jihatidan taqsimlanish zaruriyatini keltirib chiqaradi va bu xususiyat uning joylashishida o'z ifodasini topadi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish uni ixtisoslashishi bilan uzviy bog'liqdir. Ixtisoslashtirishni amalga oshirishdan oldin hudud va xo'jalikning tabiiy va iqtisodiy sharoiti sinchiklab hisob kitob qilinadi va so'ng qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ratsional joylashuvi ta'minlanadi.

Ixtisoslashtirish-ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli bo'lib, u har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy qonunlari ta'sirida vujudga keladi.

Mehnat taqsimoti ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ro'y berib, ishlab chiqarish kuchlarining darajasini aks ettiradi. Shuning uchun ixtisoslashtirish o'zgarishlarga boy jarayon bo'lib, tinimsiz rivojlanadi va takomillashadi.

Qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish deganda - mamlakatning ayrim iqtisodiy hududlari, tuman va ayrim xo'jaliklarini u yoki bu mahsulot turini ko'plab yetishtirish uchun moslashuvi tushuniladi. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish kompleks mexanizatsiya, tarmoqlarni intensiv texnologiya asosida olib borish, mehnatni tashkil qilishni progressiv shakl va uslublarini joriy etish, ishchilarning malakasini oshirish va mehnat unumdorligini o'sishiga, mehnat vositalari va buyumlaridan ratsional

foydalanish sharoitlarini yaratishga keng imkoniyatlar ochib beradi. Ixtisoslashtirish darajasini chuqurlashishi jarayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi takomillashadi va bu o‘zgarishlar undagi tarmoqlar bilan bir qatorda butun qishloq xo‘jaligini iqtisodiy samaradorligini oshishiga olib keladi.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln gektar sug‘oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xomashyo yetishtirilmoqda.

Sug‘oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta‘minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko‘lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Natijada 2008 — 2017-yillar mobaynida 1,7 mln gektardan ortiq sug‘oriladigan maydonlarning suv ta‘minoti hamda 2,5 mln gektar maydonlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga erishildi.

Biroq, global iqlim o‘zgarishi natijasida so‘nggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga kelganligi sug‘oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami yerlar 44 892,4 ming gektarni tashkil etib, yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko‘ra 8 ta toifaga bo‘linadi, jumladan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar; aholi punktlarining yerlari; sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar; tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar; tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar; o‘rmon fondi yerlari; suv fondi yerlari; zaxira yerlar.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar unumdor yerlarga taalluqli bo‘lib, umummilliy boylik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektarni, shundan haydaladigan yerlar 3 988,5 ming gektarni, ko‘p yillik daraxtzorlar 383,1 ming gektarni, bo‘z yerlar 76 ming gektarni, pichanzor va yaylovlar 11 028,3 ming gektarni, boshqa yerlar 4 760,4 ming gektarni tashkil qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash, er-suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda.

**ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. Umrzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti: o'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod – moliya, 2008. – 268 b.
2. O.Murtazayev, I.G'aniyev, Sh.Hasanov, F.Ahrorov. Agrarsiyosat va qishloq xo'jaligi bozorlari. O'quv qo'llanma. Samarqand 2009 y.
3. Nazimov S., Eshonxo'jayev D. Qishloq xo'jaligida menejment. Namangan, NamMPI, 2001.
4. I.M.G`aniyev. Agrar siyosat. (ma`ruza matnlari). Samarqand. 2004 y.